

YOSHLAR ORASIDA GIYOHVANDLIK HOLATLARINI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK MASALALARI

Abdugʻaniyeva Matluba Yusupovna

*Fargʻona viloyati Buvayda tumani MMTBga
qarashli 13-umumiy oʻrta taʼlim maktabi psixologi*

Annotatsiya: Mamlakatning har bir ongli fuqarosi giyohvandlikka qarshi kurashni shaxsiy va fuqarolik burchi deb bilishi lozim. Bu jarayon keng jamoatchilikni jalb qilgan holda, umummilliy miqyosdagi harakatga aylanishi zarur. Aks holda, kelajak avlod salomatligi, oilalar barqarorligi va jamiyat taraqqiyoti jiddiy xavf ostida qoladi. Zamonaviy taraqqiyot bosqichida giyohvand moddalar isteʼmoli dinamikasining ortib borishi, ayniqsa, yoshlar orasida, jiddiy ijtimoiy muammoga aylanmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri mavjud profilaktika va rehabilitatsiya tizimlarining real holatga mos kelmasligi va ularning yetarli darajada barqaror emasligidir. Giyohvandlik yosh avlodning psixofiziologik, axloqiy va sotsial rivojlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi kuchli xavf omiliga aylanmoqda. Ushbu maqolada giyohvandlik muammosining yoshlar orasida tarqalish sabablari, uning deviant xulq-atvor shakllariga taʼsiri va sotsiologik-dagnostik yondashuvlar tahlil etiladi.

Kalit soʻzlar: giyohvandlik, yoshlar, deviant xulq-atvor, diagnostika, zaharli modda, sotsiologik tadqiqot, jinoyatchilik

Giyohvandlik – bu shaxsning giyohvand yoki unga tenglashtirilgan vositalarga muntazam ravishda ruju qoʻyishi va ularni tibbiy koʻrsatmasiz isteʼmol qilishi bilan tavsiflanadigan ogʻir ijtimoiy-psixologik muammo boʻlib, deviant xulq-atvorning aniq bir koʻrinishidir. Bu holat nafaqat individual salomatlik, balki jamiyat barqarorligi uchun ham xavfli omil hisoblanadi. Aholi orasida ayniqsa, yoshlar qatlamida giyohvandlik holatlarining keskin ortishi, uni chuqur ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy va madaniy omillar bilan bogʻlash zaruratini tugʻdirmoqda. Sotsiologik tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, yoshlar koʻpincha oʻtkir his-tuygʻularni boshdan kechirish, stressdan qochish, yoki "rohatlanish" maqsadida giyohvand moddalarni isteʼmol qilishga moyil boʻlishadi. Bunda atrof-muhit, doʻstlar bosimi, oiladagi ziddiyatlar, va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashning yoʻqligi muhim rol oʻynaydi. Tadqiqot davomida ilmiy bilishning obyektivlikka asoslangan metodlaridan foydalanilib, yoshlar orasida giyohvandlikning tarqalish sabablari va uning profilaktikasi masalalari chuqur tahlil qilindi.

Giyohvandlikning keng tarqalishida psixologik omillar muhim rol oʻynaydi. Koʻpchilik hollarda yoshlar doʻstlarining yoki yaqin tanishlarining bosimi taʼsirida giyohvand moddalarga qiziqish bildiradi. Narkotik moddalarni qabul qilishning ilk

bosqichida odam o'zida salbiy ta'sirni sezmaydi, aksincha, ruhiy ko'tarinkilik, yengillik, hatto xavfsizlik hissini boshdan kechiradi. Bu holat psixik va fiziologik bog'liqlikni kuchaytiradi. Aynan shu yengil, ammo soxta hissiyotlar odamni bu illat domiga tortadi. Ayniqsa, spirtli ichimliklarga qaramlik bilan bog'liq holatlarda, shaxsda tajovuzkorlik, boshqalarga nisbatan befarqlik, o'zini va atrofdagilarni qadrlamaslik, jiddiy axloqiy inqirozlar yuzaga keladi.

Deviant xulq-atvorni tashxislash ko'pincha insonning o'zini tutishi, atrofdagilarga bo'lgan munosabati, ijtimoiy me'yorlarga nisbatan munosabati orqali aniqlanadi. Odamlarning zaharli moddalarga ruju qo'yishi ko'pincha ularning jamiyatda o'z o'rnini topolmasligi, salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarolmasligi bilan bog'liq bo'ladi. Bunday shaxslar ijtimoiy real hayotdan chetlashadi, ruhiy beqarorlikka, noan'anaviy xatti-harakatlarga moyil bo'lib qolishadi.

Alkogolizm va narkomaniyaga chalingan shaxslarning ruhiy va intellektual holati keskin o'zgaradi: fikrlash darajasi pasayadi, axloqiy me'yorlar buziladi, diqqat-e'tibor zaiflashadi, eslab qolish va xulqni nazorat qilish funksiyalari sustlashadi. Bu holat, ayniqsa, voyaga yetmaganlar orasida nihoyatda xavflidir. Ularning hali shakllanmagan psixikasi, o'z-o'zini anglash darajasi pastligi, hayotiy qarorlar qabul qilishdagi noyetuklik bu illatga tezda tushib qolishlariga sabab bo'ladi.

Ilmiy manbalarda alkogolizm va giyohvandlikning nasldan-naslga o'tuvchi oqibatlar haqida ham ma'lumotlar keltiriladi. Masalan, frantsuz olimi Morel olib borgan kuzatuvlarda spirtli ichimliklarga ruju qo'ygan shaxsning to'rtta avlodidagi o'zgarishlar aniqlangan. Birinchi avlodda axloqiy buzilishlar, ikkinchi avlodda alkogolizmga chalinish, uchinchi avlodda psixik buzilishlar, jinoyatchilik va o'z joniga qasd qilish holatlari, to'rtinchi avlodda esa jiddiy aqliy zaiflik va bepushtlik kuzatilgan. Bu tajriba alkogolizm va narkomaniyaning nafaqat individual, balki genetik va ijtimoiy fojia ekanligini ko'rsatadi. Eng xavflisi, giyohvand moddalarni surunkali iste'mol qiluvchi shaxslar orasida OITS va boshqa infeksiya kasalliklarga chalinish xavfi juda yuqori. Bu esa faqat bitta odam hayotini emas, balki butun jamiyat salomatligini xavf ostiga qo'yadi. Shuningdek, voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etish holatlarining ortib borishi ham giyohvandlik bilan bevosita bog'liq. Shunday ekan, giyohvandlikka qarshi kurash nafaqat huquqiy va tibbiy choralarni, balki chuqur ijtimoiy-psixologik yondashuvni ham talab etadi. Oila, maktab, jamiyat va davlat institutlari hamkorligida ushbu illatga qarshi samarali kurash olib borilishi shart. Ayniqsa, yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish profilaktikaning eng muhim omillaridandir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra dunyoda 500 milliondan ortiq odam giyohvandlik dardiga yo'liqqan. Uning aksariyat qismini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Buning oqibatida har yili 200 mingdan ortiq kishi

hayotdan ko'z yumadi. Shu bilan birga, jahonda sodir etilayotgan jinoyatlarning 57 foizi giyohvandlar hissasiga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 96-moddasiga muvofiq, alkogolizm, giyohvandlikka yo'liqqan shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilgan taqdirda, agar tibbiy xulosa mavjud bo'lsa, sud jazo chorasi bilan birga ularga tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini ham tayinlashi mumkin. Jamiyatda, oilada voyaga yetmaganlarning spirtli ichimliklarga, giyohvandlik vositalariga nisbatan salbiy qarashlari uchun vaziyat yaratilishi lozim, bunday yashash sharoitini umuman qabul qilmaslik, ularda ixtiyoriy davolanishga imkoniyat tug'dirish va kelajakda spirtli ichimliklar va giyohvandlik vositalaridan umuman voz kechishiga erishish lozim. Shunindek, narkotik moddalarining noqonuniy tarqalishining oldini olish va ularning mahfiy bozori bilan qattiq va qat'iyat bilan kurashish, giyohvandlik yoki alkogolizm kasalligidan azoblanayotgan shaxslarga insonparvarcha munosabatda bo'lish lozim. Narkotik moddalari tarqalishining oldini olishda ko'proq ularning ziyonligi haqida aholini, asosan voyaga yetmagan shaxslarni ogohlandirish katta ahamiyatga ega. Voyaga yetmagan shaxsni jazolashdan ko'ra, uni davolash maqsadga muvofiq bo'lar edi. Masalan, alkogolizm yoki giyohvandlik kasalligiga chalingan, jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarga majburiy ambulatoriya kuzatuvida bo'lish yoki narkolog mutaxassisida davolash chorasini qo'llash mumkin va ushbu majburlov chorasi jinoiy jazoga nisbatan yaxshi samara beradi, deb o'ylayman. Giyohvandlik moddalariga ruju qo'ygan voyaga yetmaganlarni jazolashdan tashqari ommaviy axborot vositalari yordamida tarbiyaviy ishlarni olib borish muhim ahamiyatga ega. Deviant xatti-harakatlarning diagnostikasi mutaxassislar tomonidan olib borilishi kerak bo'lgan juda murakkab va ko'p vaqt talab qiladigan jarayondir. Ularning orzularini buzmaslik, o'zlariga va o'zlarining istiqbollarga bo'lgan ishonchni buzmaslik uchun siz bolalar va o'smirlar bilan juda ehtiyot bo'lishingiz kerak.

Zamonaviy psixologiya va sotsiologiya fanlarida deviant xatti-harakatlar jamiyatdagi muayyan ijtimoiy, psixologik yoki madaniy omillarning natijasi sifatida talqin qilinadi. Bunday og'ishlar – ya'ni ijtimoiy normalarga zid, norasmiy, salbiy baholanuvchi harakatlar – ko'pincha o'spirinlik va yoshlik davrida yuzaga chiqadi. Ularning sabablari esa murakkab va ko'p qirrali bo'lib, individual (shaxsiy psixologik holat), oilaviy (konfliktli yoki befarq muhit), maktabdagi ijtimoiy munosabatlar, hamda ommaviy madaniyat va raqamli axborot muhitining bevosita ta'siri bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, deviant xatti-harakatlar kechikkan psixologik va ijtimoiy moslashuv natijasi bo'lib, ularga nisbatan faqat jazoga asoslangan repressiv yondashuv emas, balki ijtimoiy-pedagogik va tibbiy-psixologik yondashuvlar uyg'unligida samarali choralar ko'rilishi lozim. Chunki deviant harakatlarni to'g'rilashdan ko'ra, ularni erta bosqichda aniqlab, rivojlanishining oldini olish ko'proq ijobiy samara beradi.

Deviant xulq-atvorning erta diagnostikasi – bu patologik belgilarni aniqlash, ularga sabab bo‘lgan muhitni tahlil qilish va rivojlanishining oldini olish choralarini ko‘rishni o‘z ichiga oladi. Psixologik tahlillar orqali bolaning stressga chidamliligi, ijtimoiy ko‘nikmalari, emotsional barqarorligi va ijtimoiy normalarga munosabati aniqlanadi. Ushbu yondashuv orqali og‘ish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslar bilan maqsadli ishlash imkoniyati yaratiladi. O‘spirinlar orasida huquqbuzarliklar, tajovuzkorlik, psixoaktiv moddalarni iste’mol qilish, axloqiy buzilishlar kabi salbiy ko‘rinishlarga qarshi kurashish – faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi idoralar emas, balki boshqa davlat va jamoat tashkilotlarining ham asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ijtimoiy xizmatlar, maktab psixologlari, voyaga yetmaganlar bilan ishlovchi ijtimoiy pedagoglar va mahalla tizimi vakillari bu jarayonda faol ishtirok etishi lozim.

Deviant xatti-harakatlarning oldini olishda faoliyat yurituvchi maxsus markazlar quyidagi asosiy tamoyillarga tayangan holda ish yuritishi lozim:

1. **Kompleks yondashuv** – tibbiy-psixologik, pedagogik va ijtimoiy reabilitatsiya usullarini uyg‘unlashtirish.
2. **Huquqbuzarlikning oldini olish** – og‘ish xavfi mavjud o‘smirlar bilan profilaktik ishlash, huquqiy savodxonlikni oshirish.
3. **Repressiyadan moslashuvga o‘tish** – jazolashdan ko‘ra, o‘spirinlarning ijtimoiy-psixologik muhitga integratsiyasini ta’minlash.
4. **Aloqa muhitini shakllantirish** – yashash joyida yoshlar uchun aloqa klublari va ijtimoiy integratsiya guruhlarini tashkil etish orqali sog‘lom muloqot va psixologik yordam maydonini yaratish.

Ushbu tamoyillarning amaliyotda tatbiq etilishi o‘spirinlar orasida deviant xulq-atvorning tarqalishiga qarshi samarali kurashish imkonini beradi. Shuningdek, bu yondashuv jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o‘quvchilarni aniqlash va ularni tarbiyalash. T.: “Kamalak”. 2017. 128 b
2. Xolmatova M., Muravyev N. Yoshlar oilaviy hayot bo‘lag‘asida.-T.: O‘zbekiston, 2000
3. Социальные причины девиантного поведения девочек-подростков в условиях трансформации российского общества диссертации и автореферата по ВАК РФ 22.00.04, кандидат социологических наук Мухаммадеева, Зинфира
4. Sulaymonov J.B., Karimov N. Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring

Engineering 6. (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P.
593-599 7. www.pedagog.uz

